FARG‘ONA VILOYATIDA NIKOH VA AJRIM JARAYONLARINING HUDUDIY-DEMOGRAFIK DIFFERENSIALLASHUVI VA ULARNI GIS MODELIDA KARTOGRAFIYALASH

Ro‘zimatov Obidjon G‘ulomjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti geografiya mutaxassisligi magistranti
e-mail: obidjonruzmatov2000@gmail.com


Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda Farg‘ona viloyatidagi oilaviy-demografik jarayonlarning shahar va qishloq hududlari o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilingan. Tadqiqotda mutloq ko‘rsatkichlardan tashqari demografik intensivlikni aks ettiruvchi nisbiy indikatorlardan (demografik koeffitsientlar hamda nikoh va ajrim mutanosibligi) foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Olingan natijalar oilaviy-demografik tendensiyalarning hududiy qonuniyatlarini aniqlash hamda ularni zamonaviy GIS texnologiyalari yordamida vizual-kartografik modellashtirish uchun metodologik zamin bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona viloyati, nikoh va ajrim, hududiy differensiallashuv, shahar va qishloq tafovutlari, demografik koeffitsientlar, GIS kartografiyalash*.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda Farg‘ona viloyatida oilaviy-demografik hodisalarning (nikoh va ajrimlar) hududiy tarqalishi va ularning shahar hamda qishloq joylaridagi o‘ziga xosliklarini baholash uchun kompleks demografik-geografik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot mantig‘i hodisalarning faqat miqdoriy ko‘lamini emas, balki ularning hududiy intensivligi va demo-fazoviy strukturasini aniqlashga qaratilgan.Tadqiqotning empirik poydevorini Tahlil obyektivligini oshirish va hududiy taqqoslanuvchanlikni ta’minlash uchun barcha ma’lumotlar shahar va qishloq kesimida guruhlandi.Tahlil natijalari geoaxborot tizimlari (GIS) platformalariga integratsiya qilinib, oilaviy-demografik jarayonlarning makoniy differensiallashuvi va konsentratsiya o‘choqlarini kartografik modellashtirish hamda vizuallashtirish amalga oshirild.[4]

Kirish. Demografik jarayonlar – aholi tarkibi va sonining o‘zgarishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy jarayonlar yig‘indisidir. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tezlashuvi, iqtisodiyotning tezlik bilan modernizatsiya bo‘lib borayotganligi hamda yashash uchun qulay mintaqalar aholisining tezlik bilan o‘sib borayotganligi aholi geografiyasi eng asosiy mavzusi bo‘lgan demografik jarayonlarni tez va ko‘p o‘rganishni talab etmoqda. Sababi aynan bugungi demografik jarayonlar mamlakatning ertangi kunini belgilaydi. 5 ta ustuvor yo‘nalishga ega bo‘lgan (Tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish va migratsiya) demografik jarayonlarni O‘zbekiston Respublikasining aholi soni jihatdan yirik bo‘lgan Farg‘ona viloyati demografiyasi orqali tadqiq etish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Sababi viloyat aholisi 4 mln kishidan oshdi. Demak, bu holatlar hududiy tadqiqotlarni talab etmoqda [1].

Natijalar va munozaralar. Farg‘ona viloyatida nikoh jarayonlarining hududiy jihatdan bir xil taqsimlanmaganligini ko‘rsatadi. Viloyat bo‘yicha jami 28 896 ta nikoh qayd etilgan bo‘lib, shundan 15 239 tasi, ya’ni 52,7 foizi shaharlarga, 13 657 tasi yoki 47,3 foizi qishloq hududlariga to‘g‘ri keladi.Nikohlarning mutlaq soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar viloyatning aholi zich joylashgan va demografik salohiyati yuqori hududlarida kuzatiladi. Jumladan, Buvayda tumanida 1 962 ta, Bag‘dod tumanida 1 853 ta, Quva tumanida 1 808 ta, Uchko‘prik tumanida 1 786 ta va Oltiariq tumanida 1 667 ta nikoh qayd etilgan.



1-rasm. Farg’ona viloyati hududlar kesimida qayd etilgan nikohlarning geografik xususiyatlari.


Hududiy tafovut ayniqsa nikohlarning shahar va qishloq tarkibini tahlil qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, Buvayda tumanida jami 1 962 ta nikohning 1 559 tasi qishloq hududlariga to‘g‘ri keladi. Bu jami nikohlarning qariyb 79,5 foizini tashkil etadi. Uchko‘prik tumanida qishloq nikohlari 1 300 ta yoki 72,8 foizni, Beshariq tumanida 1 187 ta yoki 69,5 foizni, Qo‘shtepa tumanida esa 1 074 ta yoki 66,9 foizni tashkil qilgan. Ushbu hududlarda nikohlarning asosiy qismi qishloq aholi punktlarida shakllanayotgani kuzatiladi. Mazkur holat qishloq aholisi salmog‘ining yuqoriligi va aholi joylashuvining hududiy xususiyatlari bilan bog‘liq demografik strukturaning aksidir.Aksincha, viloyatning yirik shaharlarida nikohlarning deyarli yoki to‘liq shahar hududida jamlanganligi kuzatiladi. Farg‘ona shahrida 1 949 ta, Qo‘qon shahrida 1 841 ta va Marg‘ilon shahrida 1 786 ta nikoh qayd etilgan bo‘lib, ushbu nikohlarning barchasi shahar hududiga tegishlidir. Bunday taqsimot mazkur ma’muriy birliklarning urbanizatsiyalashgan hudud sifatida shakllanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu shaharlardagi yuqori mutlaq ko‘rsatkichlar aholi zichligi va shahar aholisi soni bilan birgalikda baholanishi lozim.Quvasoy shahri esa o‘ziga xos hududiy nisbatni namoyon etadi. Bu yerda jami 664 ta nikohning 290 tasi shaharlarda, 374 tasi esa qishloq hududlarida qayd etilgan. Shunday qilib, qishloq nikohlarining ulushi 56,3 foizni tashkil etadi. Mazkur holat Quvasoy ma’muriy hududining boshqa yirik shaharlaridan farqli ravishda shahar va qishloq aholi punktlarining birgalikdagi hududiy tarkibi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [5].

Nikohlarning eng past mutlaq ko‘rsatkichlari Furqat tumanida 815 ta, So‘x tumanida 824 ta va Yozyovon tumanida 894 tani tashkil etgan. Biroq ushbu qiymatlarni “nikoh faolligining pastligi” sifatida bevosita talqin qilish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Chunki mutlaq nikohlar soni hududdagi jami aholi soniga kuchli darajada bog‘liq. Shu sababli keyingi bosqichda nikohlarning 15–49 yoshdagi aholi soniga nisbatan hisoblangan koeffitsienti yoki 1 000 nafar aholiga to‘g‘ri keladigan nikohlar sonini aniqlash hududlararo taqqoslashning ilmiy asoslanganligini oshiradi.

Hududlar bo‘yicha shahar va qishloq nikohlarining nisbati Farg‘ona viloyatida nikoh jarayonining o‘ziga xos urban-rural differensiallashuvi mavjudligini ko‘rsatadi. Masalan, Buvayda, Uchko‘prik, Beshariq, Qo‘shtepa va Dang‘ara tumanlarida qishloq nikohlarining ustunligi sezilarli bo‘lsa, Farg‘ona, Oltiariq va ayrim boshqa hududlarda shahar nikohlarining salmog‘i yuqoriroq. Demak, viloyat hududida nikohlarning fazoviy tashkil topishi yagona model asosida emas, balki aholi joylashuvi va urbanizatsiya xususiyatlariga mos ravishda differensial shakllanmoqda [3].

Mazkur tafovutni kartografik jihatdan tasvirlash hududiy qonuniyatlarni yanada aniqroq ochib berish imkonini beradi. Xususan, jami nikohlar sonini choropleth xarita orqali ifodalash hududiy konsentratsiya zonalarini aniqlashga, shahar va qishloq nikohlarini juft ustunli diagrammalar yordamida ko‘rsatish esa hududlar ichidagi strukturaviy farqlarni ochib berishga xizmat qiladi. Bunda rang intensivligi nikohlarning mutlaq qiymatini, diagramma tarkibi esa shahar-qishloq nisbatini aks ettirishi mumkin. Natijada bitta xaritada nikohlarning ham miqdoriy, ham strukturaviy hududiy differensiallashuvini birgalikda ko‘rsatish imkoniyati yuzaga keladi.

Umuman olganda, 2025-yil ma’lumotlari Farg‘ona viloyatida nikoh jarayonlarining hududiy tashkil topishida sezilarli makoniy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Nikohlarning mutlaq soni bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar asosan demografik salohiyati katta hududlarda shakllangan bo‘lsa, shahar va qishloq nikohlari nisbati hududlarning urbanizatsion tuzilishiga qarab keskin farqlanadi. Shu jihatdan nikoh jarayonlarini hududiy tadqiq etishda faqat mutlaq sonlardan foydalanish bilan cheklanmasdan, aholi soni, reproduktiv yoshdagi aholi, urbanizatsiya darajasi va nikoh koeffitsientlarini integratsiyalashgan holda baholash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv Farg‘ona viloyatida demografik jarayonlarning makoniy differensiallashuvini chuqurroq ochib berish hamda hududlarning demografik rivojlanish xususiyatlarini kompleks baholash imkonini beradi [2].



2-rasm. Farg’ona viloyati hududlar kesimidagi ajrimlarning geografik xususiyatlari.

Tumanlar kesimida qishloq hududlaridagi ajrimlarning yuqori ulushi alohida e’tiborni tortadi. Buvayda tumanida 223 ta ajrimning 185 tasi (83,0%), Uchko‘prikda 255 tadan 183 tasi (71,8%), Dang‘arada 194 tadan 149 tasi (76,8%) va Qo‘shtepada 185 tadan 117 tasi (63,2%) qishloq hududlariga to‘g‘ri kelgan. Bu hududlarda ajrimlarning asosiy qismi qishloq aholi punktlarida qayd etilganini ko‘rsatadi.Ayrim tumanlarda esa ajrimlarning shahar hududidagi ulushi yuqoriroq. Xususan, Farg‘ona tumanida 311 ta ajrimning 188 tasi (60,5%), Oltiariqda 242 tadan 162 tasi (66,9%) va Rishtonda 261 tadan 158 tasi (60,5%) shaharlarga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, So‘x tumanida ajrimlarning umumiy soni 82 ta bo‘lib, shundan 52 tasi shaharda va 30 tasi qishloqda qayd etilgan.

Xulosa. Farg‘ona viloyatida nikoh va ajrim jarayonlarining hududiy jihatdan bir xil taqsimlanmaganligini ko‘rsatadi. Viloyatda jami 28 896 ta nikoh va taqdim etilgan hududiy ma’lumotlar bo‘yicha jami 4 918 ta ajrim qayd etilgan. Nikohlar tarkibida shahar hududlarining ulushi 52,7%, qishloq hududlarining ulushi esa 47,3% ni tashkil etgan. Ajrimlar bo‘yicha esa hududlar o‘rtasidagi shahar-qishloq tafovuti yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Nikoh va ajrim ko‘rsatkichlarini birgalikda ko‘rib chiqish Farg‘ona viloyatida oilaviy-demografik jarayonlarning makoniy differensiallashuvi mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq hududlarni faqat ajrim yoki nikohlarning mutlaq soni asosida o‘zaro taqqoslash metodologik jihatdan yetarli emas. Chunki ushbu ko‘rsatkichlar, avvalo, hudud aholisi soni va yosh tarkibiga bog‘liq. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda 1 000 aholiga to‘g‘ri keladigan nikohlar soni, 1 000 aholiga nisbatan ajrimlar koeffitsienti hamda 100 ta nikohga to‘g‘ri keladigan ajrimlar soni kabi nisbiy indikatorlardan foydalanish hududiy tafovutlarni yanada aniqroq baholash imkonini beradi.Farg‘ona viloyatida nikoh va ajrim jarayonlari hududiy-demografik sharoitlarga mos ravishda turlicha shakllanganini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar nikoh va ajrimlarning faqat statistik hajmini emas, balki ularning shahar-qishloq tarkibi, hududiy konsentratsiyasi va demografik intensivligini birgalikda o‘rganish zarurligini asoslaydi. Bunday kompleks yondashuv viloyatdagi oilaviy-demografik jarayonlarning hududiy qonuniyatlarini aniqlash va ularni zamonaviy GIS texnologiyalari yordamida kartografik jihatdan ifodalash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ahmadaliyev Y.I, Yuldasheva D.Farg‘ona viloyatida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari 2025-yil

2. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Монография. “Мумтоз сўз” нашриёти. Тошкент, 2010

3. Тожиева З.Н. Аҳолишунослик ва ижтимоий-иқтисодий тараққиёт// Ер ҳақидаги фанлар: истиқбол ва муаммолар. Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент, 2017. –Б. 120-122.; 117-б.

4.Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н., Қаюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси. 2-қисм. Тошкент, 2009

5. Farg‘ona viloyat statistika boshqarmasi rasmiy sayti. www.farstat.uz